



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA

Ma'rifat Xusanova

FarDU katta o'qituvchisi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ahmadjonova Farzona

FarDU talabasi "Ma'naviyat mактабдан boshланади. Maktablarda ta'lism sifatiga qanday e'tibor bersak, ma'naviyatga ham shunday e'tibor berishimiz kerak."
(Shavkat Mirziyoyev).

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik islohotlarning mazmuni, ularning dolzARB muammolari hamda samarali yechimlari, kompetensiyaga oid ta'lism tizimining afzallikkilari va asosiy xususiyatlari misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Transformatsiya, kompetensiya, kasbiy rivojlanish, shaxsiy rivojlanish, individuallik, ko'nikma, modernizatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание педагогических реформ, их актуальные проблемы и эффективные решения, а также преимущества и основные особенности компетентностно-ориентированной системы образования на примерах.

Ключевые слова: трансформация, компетенция, профессиональное развитие, личностное развитие, индивидуальность, навык, модернизация.

Annotation: This article analyzes the content of pedagogical reforms, their pressing issues and effective solutions, as well as the advantages and key features of the competence-based education system through examples.

Keywords: transformation, competence, professional development, personal development, individuality, skill, modernization.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta'lism tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Pedagogik islohotlar nafaqat ta'lism sifatini oshirish, balki shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlashga qaratilgan. Pedagogik islohotlarning asosiy maqsadi – o'quv jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. O'zbekiston ta'lism tizimida olib borilayotgan islohotlar mazmunan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularda ijtimoiy faol fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda amaldagi ta'lism tizimida bir qator muammolarga yechimlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, o'quv dasturlarining ortiqcha nazariylikka yo'naltirilganligi, o'qituvchilarning malaka darajasidagi tafovutlar, amaliy mashg'ulotlarning yetarli emasligi, zamonaviy pedagogik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



texnologiyalarda foydalanish imkoniyatlarining teng taqsimlanmaganligi, baholash tizimining ko‘proq nazariy bilimlarga asoslanganligi kabi muammolar o‘z yechimini topmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun qator takliflar ko‘rib chiqildi. Jumladan, ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy qilish, o‘qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, masofaviy ta’lim va elektron darsliklardan foydalanishni kengaytirish kabi bir qator chora tadbirlar amalda ko‘rib chiqilmoqda. Bundan tashqari, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatini qo‘lga kiritishimiz mumkin. Shuningdek, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, ya’ni alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ham o‘quv jarayoniga jalb etish, ta’lim tizimining insonparvarlik ruhini yanada oshiradi. Bu borada bir qancha xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilgan inklyuziv ta’lim jamiyatimizga yanada ko‘proq kreativ yondashuvlar va yangi iqtidor egalarini kashf qilishimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonining kompetensiyaga asoslangan bo‘lishi barcha ta’lim oluvchilar, jumladan alohida yordamga ehtiyoji bor bolalar uchu ham qulaylik yaratadi.

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim – bu o‘quvchilarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularni real hayotda qo‘llay olish, muammoni hal qilish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvidir. Quyida ushbu ta’limning asosiy xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.

1. Bilim emas, ko‘nikma ustuvor ya’ni, o‘quvchi olgan bilimini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi kerak.
2. Amaliyotga yo‘naltirish – dars jarayonida hayotiy misollar, loyihalar, muammoli vaziyatlardan foydalaniladi.
3. Individuallikka e’tibor – har bir o‘quvchining qobiliyat va qiziqishidan kelib chiqib yondashiladi.
4. Ijodiy va tanqidiy fikrlash – o‘quvchi mustaqil qaror qabul qilishni, o‘z fikrini asoslashni o‘rganadi.
5. Hamkorlik va muloqot – guruhda ishlash, o‘z fikrini boshqalarga tushuntirish, bahsmunozaralarda qatnashish rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish juda muhim, chunki aynan shu davrda bola tafakkuri va dunyoqarashi shakllanadi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinflarda ushbu ta’lim yondashuvini qo‘llash tartibi va afzallikkleri haqida ko‘rib chiqamiz.

1. O‘qish darslarida – o‘quvchiga matnni faqat o‘qib berish emas, balki uning mazmunidan hayotiy xulosa chiqarish, qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish topshirig‘i beriladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



2. Matematika darslarida – misolni quruq hisoblash emas, balki uni real hayotiy vaziyatda qo'llash (masalan, do'konda xarid qilish, vaqtini to'g'ri taqsimlash) ko'nikmalari shakllantiriladi.
3. Tabiatshunoslik darslarida – o'quvchi atrof-muhitdagi hodisalarни kuzatadi, ularni sabab-oqibat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi va o'z fikrini bildiradi.
4. Texnologiya yoki mehnat ta'limida – bolalar kichik loyihalar orqali mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashishni o'rGANADILAR.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaga asoslangan ta'lim o'quvchilarining faqat bilimli emas, balki hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa oladigan, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh shaxs sifatida voyaga yetishiغا xizmat qiladi. Shu sababli bu yondashuvni ta'limning barcha bosqichlarida, ayniqsa boshlang'ich sinflarda keng joriy qilish zamon talabi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogik islohotlar ta'lim tizimining sifat va samaradorligini oshirish, shuningdek, jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rIN tutadi. Ta'limni modernizatsiya qilish, o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali mavjud muammolarning samarali yechimini topish mumkin. Shu bois pedagogik islohotlar kelajak avlodni yetuk va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. Hasanboeva O., To'xtaxo'jaeva M. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Karimov B. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
4. O.Islomova., Ch.Halilova. Inklyuziv talimda " Ta'lim hamma uchun "
<https://ppmedu.jgpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/6232/4462/15724>.
- Samadovna, A. K., Nesibovna, M. H. (2022). Effective Factors Of Information And Communication Technology In The Formation Of Work Skills Of Students With Intellectual Disabilities. PORTA LINGUARUM,.37.
5. M.Xusanova., F.Ahmadjonova. DAVLAT TILINING OQITILISHIDA FANLARARO INTEGRATSIYA Davlat tilini rivojlantirishda til siyosatining o'rni mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 307-309.

